Abstract: Organization of innovative banking products in the process of digital transformation requires specific goals and strategies. When creating innovative banking products, it is necessary to conduct market research to understand customer needs, competitive environment and technological trends based on market research and analysis, and to determine which innovative products are most in demand. Formation of a group of specialists for the development and implementation of innovative products by forming a team. In order to ensure comprehensive cooperation, it is necessary to attach representatives from different departments of the bank. As a result of the development of the strategy, the development of the digital transformation strategy by determining the goals, methods of achievement, and the action plan, as well as paying special attention to the development of innovative products, are important goals.

Key words: innovative bank, remote banking services, super-app technologies, scoring, banking infrastructure, remote identification, customer, bank finance, infokiosks, PayPal, internet banking security, digital transformation, retail banking services, cash.

Аннотация: Организация инновационных банковских продуктов в процессе цифровой трансформации требует конкретных целей и стратегии. При создании инновационных банковских продуктов необходимо на основе исследований и анализа рынка проводить исследования рынка, чтобы понять потребности клиентов, конкурентную среду и технологические тенденции, а также определить, какие инновационные продукты наиболее востребованы. Формирование команды специалистов для разработки и внедрения инновационных продуктов путем формирования команды. Чтобы обеспечить всестороннее сотрудничество, к нему необходимо присоединить представителей разных подразделений банка. В результате разработки стратегии важными целями являются разработка стратегии цифровой трансформации путем определения целей, методов достижения и плана действий, а также уделения особого внимания разработке инновационных продуктов.

Ключевые слова: инновационный банк, дистанционное банковское обслуживание, технологии супер-приложений, скоринг, банковская инфраструктура, удаленная идентификация, клиент, банковские финансы, инфокоски, ПайПал, безопасность интернет-банкинга, цифровая трансформация, розничные банковские услуги, касса.



KIRISH

O'zbekiston bank amaliyotida informatsion oqimlarning tezlik bilan harakatlanayotganligi innovatsion bank mahsulotlarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi PF-5992-son Farmonida bank tizimiga zamonaviy servis yechimlari asosida axborot texnologiyalarini, moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, axborot xavfsizligini lozim darajada ta'minlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda inson omili ta'sirini kamaytirish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'rish talab etilmoqda, shuningdek, banklar biznes-modellarining korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatishga yo'naltirilganligi, nobank moliya tashkilotlari, innovatsiyalar va axborot tizimlarining sust rivojlanganligi sababli moliyaviy ommaboplikning past darajadaligi. Natijada, boshqa mamlakatlarda jismoniy shaxslar va korporativ mijozlarga ajratilgan kreditlar bir me'yorda taqsimlangan bir vaqtda, mamlakatimizda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar jami kredit portfeli hajmining 19 foizini, korporativ mijozlarga ajratilgan kreditlar esa 81 foizni tashkil etmoqda (Farmon 2020). Shu jumladan, raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsion bank mahsulotlari turlarini yanada kengaytirish borasidagi belgilangan vazifalar bugungi kundagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida innovatsion bank mahsulotlarini ko'rsatish yildan-yilga rivojlanib borayotgan bo'lsa-da, bu borada muammolar yo'q deb bo'lmaydi. Innovatsion bank mahsulotlarida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish va dasturda qulayliklar yaratish orqali mijozlar sonining ortishiga erishish mumkin. Tijorat banklarida innovatsion bank mahsulotlarini rivojlantirishga bir qancha omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Shunga qaramasdan, O'zbekiston bank tizimida ham innovatsion bank mahsulotlarini rivojlantirish borasida bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi, yana jadal ishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda banklar mijozlarining soni ortib borishi, ko'plab mijozlarni jalb qilish va ularga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish natijasida o'z daromadlarini ham ko'paytirish uchun harakat qilmoqdalar.

O'zbekiston bank tizimida innovatsion bank mahsulotlaridan foydalanish bilan bog'liq ba'zi asosiy muammolar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

1. **Xavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilishning etarli emasligi:** innovatsion bank mahsulotlari kiberhujumlar va fribgarliklarga qarshi himoyasiz bo'lishi mumkin, bu esa shaxsiy ma'lumotlarning tarqalishiga va moliyaviy yo'qotishlarga olib kelmoqda.
2. **Foydalanish qiyinligi:** ba'zi mijozlar yangi texnologiyalar va interfeyslardan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin, bu esa mahsulotning noto'g'ri ishlashiga va noto'g'ri tushunilishiga olib keladi.
3. **Cheklangan qamrov:** ba'zi innovatsion bank mahsulotlari faqat ma'lum hududlarda yoki ma'lum mijozlar guruhlari uchun mavjud bo'lishi mumkin, bu esa bunday mahsulotlarning mavjudligi va ishlatilishini cheklaydi.
4. **Kutilmagan to'lovlar va to'lovlar:** ba'zi innovatsion bank mahsulotlaridan foydalanish to'lovlar yoki xizmatlar uchun to'lovlar uchun kutilmagan qo'shimcha xarajatlarga olib kelmoqda.
5. **Tanlovni cheklash:** ba'zi mijozlar innovatsion banklarda har doim ham mavjud bo'lmagan mahsulotlar va xizmatlarning ko'proq tanlovi tufayli an'anaviy bank mahsulotlarini afzal ko'rishlari mumkin.

Umuman olganda, innovatsion bank mahsulotlari mijozlar uchun yangi imkoniyatlar va qulayliklarni taklif qilsa-da, ular muvaffaqiyatli foydalanish uchun banklar va mijozlarning e'tiborini talab qiladigan bir qator muammolarga duch kelishi mumkin. Xususan, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan shuni ko'rish mumkinki, bugungi kunda moliyaviy xizmatlar bozorida innovatsion bank mahsulotlarining sifati mijozlarga xizmat ko'rsatishda raqobat kurashining muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Bugungi kunda jahon bank-moliya tizimida internet orqali amalga oshiriladigan innovatsion bank xizmatlarda axborot xavfsizligiga nisbatan kuzatilayotgan eng asosiy tahdidlardan biri elektron raqamli imzoning (ERI) o'g'irlanishi bilan bog'liq. Ya'ni, zararli dasturlar yordamida tizimga ulanadi va mijozlarning elektron imzo kalitlari o'g'irlanadi. Bu muammo internet orqali bank mahsulotlarini ko'rsata boshlaganidan buyon mavjud bo'lib kelgan bo'lsada, oxirgi vaqtlarda jahonning qator banklari ushbu shaklda amalga oshirilgan qallobliklarga duch kelganlarida, ayniqsa, katta dolzarblik kasb etdi.

Ushbu muammoni hal qilish uchun tadqiqot davomida quyidagicha savollarga javob topish talab qilinadi:

- innovatsion bank mahsulotlarini tijorat banklarining tutgan o'rni hamda banklarning amaldagi holatini tahlil qilish tartibini aniqlash;



- mamlakatimiz tijorat banklarida innovatsion bank mahsulotlarining tutgan o'rnini takomillashtirishni kompleks tahlil qilish tartibi;
- tijorat banklari tizimida innovatsion bank mahsulotlarining tutgan o'rnini takomillashtirish me'zonlarini aniqlash;
- O'zbekiston tijorat banklari faoliyatida innovatsion bank mahsulotlarini baholash yo'llarini ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda innovatsion bank mahsulotlarini yetkazib berish va iste'mol qilish borasida shuningdek, texnologik rivojlanish natijasida biznes, bank va moliya tizimi muhitida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bank xizmatlar bozorida ham internet va mobil texnologiyalarni qo'llash hamda ulardan foydalanish banklarning xizmat ko'rsatish tarixida misli ko'rilmagan o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ko'p sonli elektron kanallar orqali innovatsion bank mahsulotlarini rivojlantirish mijozlarga qo'shimcha qulayliklar taqdim etish imkonini berdi. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar bank tizimida ko'plab moliyaviy xizmatlarning ortib borishi innovatsion bank mahsulotlarining ahamiyatini yanada oshirmoqda, natijada butun dunyo bo'ylab yirik banklar tomonidan bank mahsulotlarining turli xil variantlari onlayn rejimda taqdim etilmoqda.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, quyidagi bosqichlarda innovatsion bank mahsulotlari nazariyasi rivojlangan.

1960–1980-yillar innovatsion bank mahsulotlari nazariyasi rivojlanishining boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Bu paytda X.Duglas Michigan universitetining “Kreditlash sohasidagi bank siyosati” (X.Duglas, 1971), D.Revel Uels universitetining “Raqobat va bank faoliyatini boshqarish” (D.Revel, 1978), Sh.Dereyning “Britaniya banklari strategiyasi va xalqaro raqobat” asari (Sh.Derey, 1977) hamda G.Brayanning “Bank sohasidagi raqobat” tadqiqoti (G.Brayan, 1970) chop etiladi. Yuqorida qayd etilgan ilmiy ishlar bank mahsulotlari bozori va uning bank xizmati segmentini o'rganishga bag'ishlangan.

1980–2000-yillarni innovatsion bank mahsulotlari nazariyasi rivojidagi ikkinchi bosqich deb hisoblash mumkin. Ushbu davr alohida mamlakatlar kredit-moliya tizimlari faoliyati o'ziga xos xususiyatlarini hamda bank kapitali globallasuvi va markazlashuvi bank mahsulotlari bozoriga ta'siri ehtimoliy oqibatlarini tadqiq etishga urinishlar sifatida tavsiflanadi (Z.Mamadiyorov, 2018).

“Moliyaviy supermarket” va “moliyaviy butik” g'oyasi hamda tor yo'nalishga ixtisoslashgan banklarning universal banklar qatoriga qo'shilishi dolzarb ahamiyat kasb etdi. Ssuda kapitali bozoridagi xizmatlar, elektron xizmatlar keng tarqaldi, banklarning birlashishi va mijozlar sonining keskin oshishi holatlari ko'paydi (O.Alqoriyev, 2011). Bu boradagi mashhur tadqiqotlar orasida D.Jentlening “Moliyaviy xizmatlar industriyasi” (D.Jentle, 1993), J.Sinkining “Tijorat banklarida moliyani boshqarish” (J.Sinki, 1994), P.Rouzning “Bank menejmenti, moliya mahsulotlarini taqdim etish” (P.Rouz, 1995) kabi ishlarni qayd etish mumkin. Bank mijozlari uchun innovatsion bank mahsulotlaridan foydalanish imkoniyati yaratildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada bank tizimida innovatsion bank mahsulotlarini takomillashtirish ko'lamini kengaytirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tanlangan.


NATIJA VA MUHOKAMA

Raqamli transformatsiya jarayonida innovatsion bank mahsulotlarining iqtisodiyotda tutgan o'rnini takomillashtirish hamda uning samaradorligini oshirishni bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy yondashuvlar, mualliflik yondashuvlari amaliy faoliyatga tadbiiq etilishi mumkin. Tadqiqot natijalari raqamli transformatsiya jarayonida innovatsion bank mahsulotlarining bank tizimida tutgan o'rnini takomillashtirish yuzasidan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Raqamli transformatsiya jarayonida innovatsion bank mahsulot va xizmatlar bozorida yuz berayotgan transformatsion jarayonlar, fikrimizcha, quyidagi asosiy bosqichlar orqali ifodalanadi:


1-bosqich. Chakana bank xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan va bank litsenziyasiga ega bo'lgan tashkilotlar tomonidan mobil ilovalardan foydalanish ko'lamining kengayib borishi.

Chakana xizmatlarga ixtisoslashgan banklarning rasmiy saytlariga tashrif darajasi bo'yicha Revolut, Monzo va N26 yetakchilik qilishlari aniqlangan. Shu o'rinda qayd etish lozimki, Instagram, Facebook, Twitter va LinkedIn, shuningdek, Youtube videoxostingi orqali bank xizmatlarini sotish kanallarini shakllantirish masalasiga e'tibor qaratilmoqda. Xususan, oylar kesimida eng yirik o'sish sur'atlari Instagram (2,3 foiz), Facebook (1 foiz), Twitter (0,7 foiz) va LinkedIn (2,9 foiz) kuzatilgan.



1-rasm: Chakana bank xizmatlarini taklif etishda qo'llanilayotgan trafiklar¹ (foizda)

2-bosqish. Ijtimoiy to'lovlar sohasining keskin rivojlanib borishi. "Forrester"² kompaniyasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, ijtimoiy to'lovlar sohasida bir qator o'zgarishlar yuz berayotganligidan dalolat beradi. PayPal, Venmo ilovasi, Apple Cash, Square Cash App mobil ilovasi orqali taklif etilayotgan integratsiyalangan to'lov paketlari tijorat banklarining to'lovlar bozoridagi jiddiy raqobatchilariga aylanishini ta'minlab bermoqda. Ammo shunga qaramasdan, bank kartalari va naqd pul orqali amalga oshirilayotgan operatsiyalar ustuvorlik kasb etmoqda.



2-rasm: AQSh hududida to'lov shakllari bo'yicha iste'mol to'lovlarining o'rtacha oylik hajmi³ (mlrd. AQSh dollarida)

"PYMNTS analitik markazi"⁴ tadqiqotlariga ko'ra, iste'molchilar mobil hamyonga nisbatan kontaktless kartalarni afzal ko'rishmoqda. Berilgan ma'lumotlarga ko'ra, AQShda har to'rtinchi xaridor birlamchi mahsulotlarni internet orqali sotib olishgan.

3-bosqish. P2P-tranzaksiyalar segmentida raqobat kurashining keskinlashishi. P2P-tranzaksiyalarni amalga oshirishga ko'maklashadigan texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi fintex kompaniyalar bilan raqobat afzalliklarini yaratish uchun AQSh besh yirik banki pul o'tkazmalarining Zelle platformali servisini ishlab chiqib, P2P-tranzaksiyalar sohasida muayyan muvaffaqiyatga erishdi. Ammo PayPal, Venmo va Cash App Block tomonidan qo'shimcha funksionallarning taklif etilishi (xususan, S2B-to'lovlari) banklar uchun qo'shimcha muammolarni yuzaga keltirmoqda.

1 Muallif hisob-kitoblari.

2 <https://www.forrester.com/report/predictions-2022-payments/RES176306> - ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

3 <https://www.pymnts.com/topic/retail/> - ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

4 <https://www.pymnts.com/> - ma'lumotlari asosida tayyorlangan.



4-bosqish. Super-app texnologiyalarining joriy etilishi. Bugungi kunda dunyoning yetakchi banklari tomonidan faol o'rganilayotgan masalalardan biri Super-app (mijoz uchun zarur bo'lgan funksiyalarni yagona interfeysda yig'ish) shakllantirish hisoblanadi. Mazkur masalaning yillik hisobot va biznes rejalarda qayd etish holatlari 2019–2021-yillar davomida 640 foizga ko'paygan. Mazkur yo'nalishdagi asosiy muammo mijozlarning talabi bilan bog'liq. Bank ilovalari murakkab tarkibiy tuzilmaga ega, ammo mijozlar aksariyat holatlarda balansni tekshirish, to'lovlarni amalga oshirish va to'lovlar tarixi kabi funksiyalardan foydalanishadi xolos. Shuning uchun mobil ilovalarni boshqa platformalarga integratsiyalashtirishda 4-5 API qo'llaniladi.

Xorijiy mamlakatlarda bank infratuzilmasi rivojlanishiga faqatgina texnik va texnologik rivojlanishgina emas, balki aholining moliyaviy savodxonligi oshishi, o'zi uchun qulay bank xizmatlaridan samarali foydalana olishi ham turtki bo'lgan. "2016-yilda "PewResearchCentre" tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, AQSh aholisining bank operatsiyalarini amalga oshirishda 51 foizi mobil bankingdan, 50 foizi elektron bankingdan foydalansa, Xitoy va Koreya aholisining 50 foizi ushbu xizmat turlaridan foydalanadi. Bu esa aholining bank interaktiv xizmatlariga bo'lgan talabi yuqoriligini bildiradi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, "2011–2014-yillarda bank xizmatlaridan foydalanuvchilar va banklarda o'z hisob raqamlariga ega jahon aholisi soni 700 mln.ni tashkil etdi"⁵.

Bank mijozlari 51 foizdan 62 foizgacha oshdi, bunga bank xizmatlari, texnologiyalar va bank infratuzilmasining rivojlanishi sabab bo'ldi. Har 100 ming aholiga to'g'ri keluvchi bank filiallari soni Koreyada 272 ta, Yaponiyada 127,8 tani tashkil etadi. Yaponiya bankomatlari soni va xizmatlari jihatidan yetakchi hisoblanib, 2012-yildan boshlab, biometrik ma'lumotlar asosida ishlovchi bankomatlar tizimi ishga tushirildi. Har 100 ming aholiga to'g'ri keluvchi bank filiallari soni Yaponiyada 34,10 ta, Buyuk Britaniya 25,8 ta, Hindistonda 14,7 ta to'g'ri keladi. Hindistonning "ICICIBank" mijozlar soni 25 mln.ga yetdi. Hindistonning yirik banklari "Bank of Baroda", "Bank of India" ning 3100 ta filiali, "Andhra Bank"ning 22 ta shaharda 1500 ta filiali mavjud, bankomatlar soni esa 50 mingtani tashkil etadi"⁶. Yuqorida keltirilgan banklar "90 mln. dan ortiq mijozlarga xizmat ko'rsatadi.

Bugungi kunda "Buyuk Britaniya, Italiya, Germaniya, AQSh, Koreya, Yaponiya singari mamlakatlar aholisi masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish darajasi 55 foizdan 98 foizgachani tashkil etishi natijasida Italiyaning "Unicredit" guruhining 2018-yilga kelib 800 ta bo'limi qisqardi. 2012-yilda "Bank of America"ning filiallari soni 800 taga qisqardi. "JP Morgan" tahlilchilari bu borada olib borgan tadqiqotlarida investorlar xarajatlarni qisqartirgan holda kapitalni raqamli iqtisodiyotga yo'naltirishning afzalligi asoslandi. Shuningdek, Germaniyaning "Deutsche Bank" 1 mlrd. yevroni 2018-2024 yillarda raqamli banking 72 xil turdagi xizmatlarini rivojlantirishga yo'naltirish rejalashtirgan. Bunga sabab, agar banklar raqamli bankingga investitsiya ajratmas ekan, ular asosiy daromadini 30-35 foiz yo'qotishi mumkin degan taxminlar ilgari surilgan"⁷.

O'sish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda "bank infratuzilmasi 1990-yillarda Rossiya, Xitoy, Belarus kabi mamlakatlar bank tizimiga kirib kelgan. O'zbekiston, Qozog'istonda esa 2005-yildan boshlab zamonaviy bank xizmat turlari, texnologik rivojlanishi, shu bilan birga bankomatlar, plastik kartochkalar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish ommalashgan"⁸.

AQSh, Xitoy va Yaponiya mamlakatlarida bank infratuzilmasining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi birinchi omil innovatsion texnologiyalarning bank tizimiga joriy etilgani bo'lsa, ikkinchi omil aholi moliyaviy savodxonligining yuqoriligi sanaladi. "Ushbu davlatlar ilk bora bank tizimiga "raqamli bank"ni joriy etdi va ushbu tizimdan foydalanuvchilar soni 55 foizdan 90 foizgachani tashkil etmoqda. Xitoyda nafaqat banklar orqali to'lov, balki mobil to'lov tizimi ham yuqori darajada rivojlangan. Xitoyda "Ali pay", "We chat pay", "Union Pay Quick Pass" to'lov tizimi bozorda yetakchi bo'lib, "Ali pay"dan foydalangan holda amalga oshirilgan to'lovlar 90 foizni tashkil etadi. Plastik kartochkalar orqali savdo tarkibida – kredit kartalar orqali to'lovlar hajmi 60 foizga, debit kartalar orqali to'lovlar 40 foizga yetgan"⁹.

Rivojlangan va o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlar tajribasi ko'rsatdiki, "bank infratuzilmasining rivojlanishida asosiy e'tibor xizmatlarni va texnologiyani rivojlantirishga qaratilgan. Bank infratuzilmasining rivojlanishiga yo'naltirilgan investitsiyalar banklarga yangi texnologiyalarni jalb etish orqali yangi xizmat turlari kengayishi va mijozlar bazasi oshishiga olib kelgan. Yevropa va AQSh banklari investorlari o'z mablag'larining 91 foizini bank faoliyati samaradorligini oshirishda infratuzilmaga investitsiya kiritishga sarflamoqda"¹⁰. Bugungi kunda doimiy tarzda foydalanib kelinayotgan xizmat turlarining o'rnini raqamli banking xizmat turlari egallamoqda. Chunki banklar xizmat turlarini takomillashtirmas ekan, ularning daromadi va mijozlar soni keskin qisqarib borishini xorij tajribasi ko'rsatib bermoqda.

5 www.worldbank.com - ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

6 XVF – ma'lumotlari asosida tayyorlangan. <http://data.imf.org>

7 XVF – ma'lumotlari asosida tayyorlangan. <http://data.imf.org>

8 XVF – ma'lumotlari asosida tayyorlangan. <http://data.imf.org>

9 The Goldman Sachs Group, Inc. Future of Finance: The Rise of China FinTech. August 7, 2017

10 https://www.mastercard.com/content/dam/mccom/gateway/documents/MC_WhitePaper_GlobalPaymentsPlaybook_202201_v3_Reduced.pdf



Pandemiya bank mijozlarini an'anaviy filiallardan raqamli kanallarga o'tishini rag'batlantirdi. "Boston Consulting Group (BCG)ning chakana bank faoliyati bo'yicha o'tkazgan so'rovnomasiga ko'ra, 16 ta yirik bozorda respondentlarning o'rtacha 13 foizi pandemiya davrida birinchi marta onlaynbanking xizmatidan foydalangan (mobil banking orqali o'rtacha 12 foiz) va ayrim bozorlarda bu foiz ancha yuqori. Xitoyda pandemiya davrida mobil bankingdan foydalanish 30 foizga, Janubiy Koreyada 21 foizga, Ispaniyada 14 foizga, AQSh va Italiyada 13 foizga va boshqa davlatlarda ham sezilarli o'sish kuzatildi. Pandemiya davrida naqd pulsiz to'lovlar ham sezilarli ravishda ortdi. Respondentlarning 20 foizdan ortig'i internet-banking va mobil ilovalar kabi raqamli to'lov yechimlaridan foydalanishni ko'paytirganini, 10% dan ortig'i esa kredit va debet kartalari haqida shunday fikr bildirdi. So'nggi vaqtlarda ayniqsa pandemiya davridan so'ng bank filiallar faoliyati bo'yicha turli biznes tahlillarni o'tkazishni talab etmoqda. BCG so'rovnomasiga ko'ra pandemiya davrida bank filiallaridan foydalanish 12 foizga, pandemiya davridan so'ng 26 foizga qisqarganini ko'rsatdi" (B.Bloching, 2015).

Raqamli bo'lmagan banklar tez orada yangi va tajribali foydalanuvchilar filiallarga tashrif buyurishdan ko'ra onlayn-banking va raqamli bank xizmatlarini tanlashlari turli muammolarni keltirib chiqaradi. Risk shundaki, raqamli texnologiyalardan xabardor bo'lgan mijozlar raqamli jihatdan rivojlangan amaldagi raqobatchi banklarga yoki innovatsion rivojlangan banklarga o'tib ketishlari mumkin. Raqamli bankni rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish shuni ko'rsatadiki, raqamli bank iste'molchi, investor va bankning o'zi nuqtai nazaridan zamonaviy imkoniyatlar to'plamiga ega bankdir.

Dunyoning yetakchi ekspertlarining prognozlariga ko'ra, "2025-yilga kelib jahon iqtisodiyotining chorak qismidan ko'prog'i raqamli bo'ladi va iqtisodiyotni raqamlashtirish texnologiyalarini joriy etish davlat, biznes va jamiyatning samarali hamkorlik qilishiga imkon beradi"¹¹. 15 dan ortiq mamlakatlar milliy raqamlashtirish dasturlarini amalga oshirmoqda: Daniya, Norvegiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Saudiya Arabistoni, Hindiston, Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Malayziya, Singapur, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Qozog'iston. Xitoy Internet Plyus dasturida raqamli sanoatni an'anaviy tarmoqlar bilan birlashtiradi (- jadval).


1-jadval: 2022-yilda mijozlar bazasi hajmi bo'yicha dunyoning yetakchi raqamli banklari¹²

No	Banklar	Bosh kompaniya	Mamlakatlar	Mijozlar soni (million)
1	ING Diba	ING Group	Germaniya	8,5
2	Capital One 360	Capital One Financial	AQSH	7,8
3	USAA Bank	USSA	AQSH	7,0
4	FNBO Direct	First National of Nebraska	AQSH	6,0
5	Rakuten Bank	Rakuten	Yaponiya	5,0
6	Tinkoff Bank	-	Rossiya	5,0
7	TIAA Direct	TIAA-CREF Trust Company	AQSH	3,9
8	Discover Bank	Discover Financial Services	AQSH	3,5
9	Alior Bank	-	Polsha	3
10	DKB AG	-	Germaniya	3

Statista bozorlari va iste'molchilari uchun xalqaro biznes platformasiga ko'ra, onlayn-banking va mobil banking xizmatlaridan foydalanish 2020-2024 yillarda barqaror o'sib boradi va Osiyo bozori eng yirik hisoblanadi. 4.19-rasmdan ko'rinib turibdiki, 2020-yilda uzoq Sharq va Xitoy 800 milliondan ortiq faol onlayn bank foydalanuvchilariga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich 2024 yilga kelib deyarli bir milliardga yetishi kutilmoqda.

11 Технологии финансовых услуг в 2022 году и в дальнейшем: революционные перемены [Электронный ресурс] // PricewaterhouseCoopers.–Режим доступа: https://www.pwc.ru/ru/banking/publications/_FinTech

12 Технологии финансовых услуг в 2022 году и в дальнейшем: революционные перемены// PricewaterhouseCoopers.–Режим доступа: https://www.pwc.ru/ru/banking/publications/_FinTech



3-rasm: 2020–2024-yilgacha bo'lgan faol onlayn bank foydalanuvchilari soni o'sishi dinamikasi va prognozi¹³ (mln. kishi)

Shuningdek, 6.-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2020-yilga kelib dunyo bo'ylab 1,9 milliardga yaqin odam onlayn-bank xizmatlaridan faol foydalangan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu raqam 2,5 milliardga yetishi prognoz qilinmoqda. Shuning uchun, agar banklarning mijozlar bazasining o'sishi foydaning asosiy omillaridan biri ekanligini hisobga olsak, banklar bozor sharoitlari va mijozlar ehtiyojlariga nisbatan moslashuvchan bo'lishi kerak.

Innovatsiyalarning ta'siri qo'llanmaning biznesni boshqarish uslubi va jarayonlarini, xususan, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini qayta ko'rib chiqishga tayyorligiga bog'liq. Ushbu tashabbuslar birinchi navbatda banklarda innovatsion texnologiyalarni takomillashtirish, aholining barcha qatlamlari kirishi uchun yangi raqamli xizmatlarni ishlab chiqish va banklarni universal moliya institutlari sifatida rivojlantirishga qaratilgan. Banklar moliya institutlari sifatida bozor iqtisodiyotida jamg'arma va investitsiyalarni samarali taqsimlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi va butun moliyaviy tuzilmaning barqarorligi uchun muhimdir. Shuning uchun ular bir vaqtning o'zida iqtisodiyot bilan birgalikda isloh qilishlari va moslashuvchan vositalarga ega bo'lishlari kerak. Raqamlashtirish iqtisodiyotning zamonaviy o'ziga xos xususiyati bo'lganligi sababli, bank sektori iqtisodiyotning bir qismi sifatida ham zamonaviy talablarga javob berishi kerak, chunki rentabellik darajasi va banklarning faoliyati bevosita makroiqtisodiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

XULOSA

“Bank xizmati” va “bank mahsuloti” tushunchalarining paydo bo'lishi bank operatsiyalarini optimal darajada bajarishga ko'makchi bo'lib, ko'plab iqtisodchilarning e'tiborini tortmoqda, ular tomonidan turlicha talqin etilmoqda. Yaratilgan, ishlab chiqilgan va sotilgan innovatsion bank mahsulotlari bank operatsiyalari bilan birgalikda bank mahsulotini yaratadi. Innovatsion bank mahsulotlarining paydo bo'lishi va davriy rivojlanishi yoki axborot texnologiyalarining taraqqiy topishi natijasida innovatsion bank xizmat turlarining ortib borishi kuzatildi. Xususan, kompyuter, smartfon, maxsus interaktiv televizor va boshqa texnologiyalarning yaratilishi sababli, ular imkoniyatlaridan banklarda foydalanish natijasida innovatsion bank mahsulotlarining turlari ortib bordi. Zamonaviy axborot texnologiyalari, yangi innovatsion bank mahsulot va xizmatlarining joriy etilishi O'zbekiston bank tizimida ham bank xizmatlari bozori kengayishiga sharoit yaratmoqda. O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlangani sari tijorat banklari ham chakana amaliyotlar, mijozlarga taqdim etiladigan xizmat turlarini oshirish orqali o'z faoliyatini diversifikatsiyalashga erishmoqda. Har bir yangi axborot texnologiyalar imkoniyatlari va to'lov tizimi bilan bog'liq innovatsion g'oyalarning bank tizimiga targ'ib qilinishi banklarda yangidan-yangi xizmatlar paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari, innovatsion mahsulotlar umuman iqtisodiyotni rivojlantiradi, chunki ular aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga, tadbirkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirishga yordam beradi. Shu sababli, innovatsion bank mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish har qanday zamonaviy bankning muvaffaqiyatli faoliyatining asosiy elementidir.

¹³ <https://www.statista.com>

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrda "O'zbekiston Respublikasining Markaziy Banki to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-580-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrda "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3270-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martda "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620-sonli Qarori.
4. Иванов А. Банковские услуги: зарубежный и российский опыт. М.: Финансы и статистика, 2002.
5. Douglas X. Banking policy in the field of lending. - M.: Slovo, 1971. - 508 p.
6. Mamadiyarov Z.T. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarining evolyutsiyasi va rivojlanish bosqichlari (xalqaro tajriba) // "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2018-yil, 11 b.
7. Electronic Banking Group Initiatives and White Papers. - Basel Committee for Banking Supervision. - Basel, October 2000. - 27 p.
8. Devlin, J.F. (1995), "Technology and innovation in retail banking distribution", International Journal of Bank Marketing, Vol. 13 No. 4, pp. 19-25.
9. Aliqoriyev O.F. Tijorat banklarida moliyaviy xizmat turlarini rivojlantirish yo'nalishlari. iqt. fan. nom. ... diss. Avtoreferat – Toshkent, 2011. – 28 b.
10. www.sciencedirect.com - ilmiy tadqiqotlar haqida ma'lumotlar taqdim etuvchi xalqaro ilmiy elektron baza rasmiy veb-sayti;
11. www.scopus.com - ilmiy tadqiqotlar haqida ma'lumotlar taqdim etuvchi xalqaro ilmiy elektron baza rasmiy veb-sayti;
12. www.corporatefinanceinstitute.com – xalqaro korporativ moliya va moliyaviy institutlar bo'yicha tadqiqotlar olib boruvchi onlayn provayder rasmiy veb-sayti;
13. www.statista.com - statistik ma'lumotlar taqdim etuvchi xalqaro veb-sayt;
14. www.imv.uz O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy veb-sayti;
15. www.cbu.uz O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.